QADIMGI TURKIY YOZMA YODGORLIKLAR TARJIMASINI TADQIQ ETISHDA LINGVOTEXTOLOGIK, LINGVOPRAGMATIK VA LINGVOMADANIY YONDASHUVLAR

Parpibayev Botirali Raximjon o‘g‘li
Namangan davlat universiteti
botiraliparpiboyev4@gmail.com

Annotatsiya: *Mazkur maqolada qadimgi turkiy yozma yodgorliklar — “Qutadg‘u bilig” va “Devonu lug‘at-it turk” asarlarining o‘zbek, ingliz va rus tillaridagi tarjimalarini tadqiq etishning nazariy-metodologik asoslari yoritilgan. Tarixiy matn tarjimasi murakkab, ko‘p qatlamli hodisa sifatida talqin qilinib, uni o‘rganishda lingvotextologik, lingvopragmatik va lingvomadaniy yondashuvlarning integrativ qo‘llanilishi zarurligi asoslanadi. Tadqiqotda Q. Karimov, R. Dankoff, W. May, S. Ivanov, Q. Sodiqov va Z. Auezova tarjimalari qiyosiy tahlil qilinib, matnning tekstual qurilishi, kommunikativ-pragmatik vazifasi hamda lingvomadaniy mazmunining tarjimada qayta yaratilish xususiyatlari aniqlangan.*

Kalit so‘zlar: *qadimgi turkiy yozma yodgorliklar, tarjimashunoslik, lingvotextologik yondashuv, lingvopragmatik yondashuv, lingvomadaniy yondashuv, ekvivalentlik, “Qutadg‘u bilig”, “Devonu lug‘at-it turk”.*

Аннотация: *В статье освещаются теоретико-методологические основы исследования переводов древнетюркских письменных памятников — произведений «Кутадгу билиг» и «Дивану лугат-ит турк» — на узбекский, английский и русский языки. Перевод исторического текста рассматривается как сложное, многоуровневое явление; обосновывается необходимость интегративного применения лингвотекстологического, лингвопрагматического и лингвокультурологического подходов к его изучению. В исследовании проводится сравнительный анализ переводов К. Каримова, Р. Данкоффа, У. Мэя, С. Иванова, К. Содикова и З. Ауэзовой, на основе которого выявляются особенности воссоздания в переводе текстуальной организации, коммуникативно-прагматической функции и лингвокультурного содержания исходного текста.*

Ключевые слова: *древнетюркские письменные памятники, переводоведение, лингвотекстологический подход, лингвопрагматический подход, лингвокультурологический подход, эквивалентность, «Кутадгу билиг», «Дивану лугат-ит турк».*

Annotation: *This article examines the theoretical and methodological foundations for studying the Uzbek, English, and Russian translations of the Old Turkic written monuments Kutadgu Bilig and Dīwān Lughāt al-Turk. The translation of historical texts is regarded as a complex, multilayered phenomenon, and the need for the integrated application of linguotextological, linguopragmatic, and linguocultural approaches to its study is substantiated. The study provides a comparative analysis of the translations by Q. Karimov, R. Dankoff, W. May, S. Ivanov, Q. Sodiqov, and Z. Auezova, identifying the specific features of reproducing the textual organization, communicative-pragmatic function, and linguocultural content of the source text in translation.*

Keywords: *Old Turkic written monuments, translation studies, linguotextological approach, linguopragmatic approach, linguocultural approach, equivalence, Kutadgu Bilig, Dīwān Lughāt al-Turk.*

Kirish

Jahon tarjimashunosligida tarixiy matnlar tarjimasi eng murakkab va ko‘p qatlamli muammolardan biri sifatida baholanadi. Bunday matnlarni tarjima qilish jarayonida faqat bir til birliklarini boshqa til vositalari orqali ifodalash emas, balki muayyan davrning tarixiy tafakkuri, madaniy muhiti va kommunikativ maqsadini qayta tiklash zarurati yuzaga keladi. Qadimgi turkiy yozma yodgorliklar, xususan, Yusuf Xos Hojibning “Qutadg‘u bilig” va Mahmud Koshg‘ariyning “Devonu lug‘at-it turk” asarlari nafaqat til tarixini, balki turkiy xalqlarning ijtimoiy-siyosiy, diniy-falsafiy hamda madaniy dunyoqarashini o‘zida mujassamlashtirgan nodir manbalardir.

Mazkur asarlar tarjimasini tadqiq etishda oddiy lingvistik yondashuv yetarli bo‘lmaydi, chunki bu matnlarda qo‘llangan ko‘plab birliklar muayyan tarixiy davr, mentalitet va madaniy kod bilan chambarchas bog‘langan holda namoyon bo‘ladi. Shu bois maqolaning dolzarbligi tarixiy matn tarjimasini yagona lingvistik tekislikda emas, balki matnning tekstual, kommunikativ-pragmatik va lingvomadaniy qatlamlarini birlashtiruvchi kompleks metodologik tizim asosida o‘rganish zaruratidan kelib chiqadi.

Tadqiqotning maqsadi — qadimgi turkiy yozma yodgorliklar tarjimalarini lingvotextologik, lingvopragmatik va lingvomadaniy yondashuvlar integratsiyasi

asosida tahlil qilish, ushbu yondashuvlarning nazariy asoslarini aniqlash hamda ularning amaliy qo‘llanilish imkoniyatlarini “Qutadg‘u bilig” va “Devonu lug‘at-it turk” tarjimalari misolida ko‘rsatishdan iborat. Tadqiqotning vazifalari quyidagilardan iborat: 1) mavzuga oid nazariy manbalarni tahlil qilish; 2) tadqiqot metodologiyasini asoslash; 3) tanlangan matn parchalari — maqol, bayt va lingvomadaniy birliklar — misolida uch yondashuvning amaliy imkoniyatlarini ko‘rsatish; 4) olingan natijalarni umumlashtirish.

Adabiyotlar tahlili

Tarjimashunoslikda tarixiy matn muammosi ko‘pincha ekvivalentlik, interpretatsiya va madaniy transfer (ko‘chim) tushunchalari bilan bog‘liq holda izohlangan. R. Yakobson tarjimani bir belgilar sistemasini boshqa belgilar sistemasi orqali interpretatsiya qilish jarayoni sifatida talqin qiladi va intralingval, interlingval hamda intersemiotik tarjima tasnifini ilgari suradi [1, 232]. Yu. Nayda ishlab chiqqan formal va dinamik ekvivalentlik nazariyasi tarjimada tinglovchida asliyatdagi ta’sirga yaqin kommunikativ reaksiya hosil qilish zarurligini asoslaydi, biroq tarixiy matn tarjimasida bu nazariyaning imkoniyatlari ma’lum darajada cheklangan bo‘ladi [2, 159]. P. Nyumark semantik va kommunikativ tarjima o‘rtasidagi farqni ko‘rsatib, tarixiy matnlarda semantik yondashuvning ustuvorligini ta’kidlaydi [3, 45].

Rus tarjimashunosligida L. Barxudarov tarjimani mazmun va shakl birligini saqlagan holda qayta yaratish jarayoni sifatida [4, 9], A. Fedorov esa mazmun va shaklning dialektik birligini asosiy tamoyil sifatida belgilaydi [5, 35]. V. Komissarov tarjimada pragmatik ekvivalentlik masalasiga alohida e’tibor qaratib, kommunikativ vaziyat o‘zgarganda pragmatik potensialning ham transformatsiyaga uchrashini ko‘rsatadi [6, 48]. H.-G. Gadamer germenevtik nazariyasida tushunishni “tarixiy onglar dialogi” sifatida izohlaydi, bu qarash tarjimonni ikki tarixiy ong o‘rtasida vositachi sifatida talqin qilish imkonini beradi [7, 305]. J. Steiner esa tarixiy matn tarjimasini “germenevtik harakat” sifatida tavsiflab, tarjimonni boshqa davr tafakkurini qayta interpretatsiya qiluvchi subyekt sifatida ko‘rsatadi [8, 28]. L. Venuti esa domestication (mahalliylashtirish) va foreignization (begonalashtirish) strategiyalari o‘rtasidagi ziddiyatni tahlil qilib, tarixiy begonalikni to‘liq yo‘qotish matnning madaniy identifikatsiyasiga zarar yetkazishini qayd etadi [9, 19].

Turk filologik maktabida R. Arat “Qutadg‘u bilig”ni matn, tarjima va indeks shaklida ilmiy muomalaga kiritib, qadimgi turkiy matnlarni tadqiq qilishda kompleks filologik metod zarurligini asoslaydi [10]. M. Ergin [11, 34] va T. Tekin [12, 17] runik matnlar interpretatsiyasida fonetik-morfologik

rekonstruksiya hamda transliteratsiya-transkripsiya farqlanishining ahamiyatini ko‘rsatadilar. G‘arb turkologiyasida G. Clauson [13] va M. Erdal [14, 27] qadimgi turkiy leksikani etimologik-tarixiy semantik aspektda tahlil qilib, tarixiy semantikani e’tiborga olmagan tarjima konseptual deformatsiyaga olib kelishini ta’kidlaydilar. O‘zbek turkologiyasida Q. Karimov [15], S. Mutallibov [16] va Q. Sodiqov [17] qadimgi turkiy matnlarni nashr va tarjima qilishda transkripsiya, tabdil hamda kommentariyali interpretatsiya metodlarini uyg‘unlashtirganlar.

Matn lingvistikasi sohasida R. de Beaugrande va W. Dressler matnni kommunikativ birlik sifatida talqin qilib, uning yaxlitligi va bog‘liqligini asosiy belgi sifatida ko‘rsatadilar [18]; I. Galperin matnni murakkab nutqiy butunlik deb baholaydi [19]. Lingvopragmatik yo‘nalishda J. Austin [20, 98] va J. Searle [21, 23] nutq aktlari nazariyasini, G. Leech nutqning kommunikativ samaradorligi masalalarini [22, 13], N. Arutyunova [23, 643] va V. Karasik [24, 186] esa nutqning tinglovchiga yo‘naltirilganligini asoslaydilar. Lingvomadaniyat sohasida V. fon Humboldt tilni xalq ruhiyatining ifodasi sifatida [25, 53], V. Teliya [26, 214] va V. Maslova [27, 27] esa til birliklarini madaniy xotira va madaniy axborot tashuvchisi sifatida talqin qiladilar. O‘zbek tilshunosligida N. Mahmudov va D. Xudoyberganova til va madaniyat munosabatlarini antropotsentrik paradigma asosida yoritadilar [28].

Keltirilgan nazariy qarashlarni umumlashtirish shuni ko‘rsatadiki, mavjud tadqiqotlarda tarixiy matn tarjimasi ko‘pincha alohida — yoki faqat lingvistik, yoki faqat pragmatik, yoki faqat madaniy — jihatdan o‘rganilgan, biroq uch qatlamning integrativ tahlili yetarli darajada amalga oshirilmagan. Ushbu bo‘shliq mazkur tadqiqotning nazariy asosini belgilaydi.

Tadqiqot metodologiyasi

Tadqiqot obyekti sifatida turkiy yozma madaniyat tarixining eng yirik manbalari — “Qutadg‘u bilig” hamda “Devonu lug‘at-it turk” asarlarining o‘zbek, ingliz va rus tillaridagi tarjimalari tanlandi. Xususan, Yusuf Xos Hojib asarining Q. Karimov (o‘zbekcha), R. Dankoff hamda W. May (inglizcha) va S. Ivanov (ruscha) tomonidan amalga oshirilgan tarjimalari; Mahmud Koshg‘ariy asarining Q. Sodiqov (o‘zbekcha), R. Dankoff (inglizcha) hamda Z. Auezova (ruscha) talqinlari qiyosiy tahlil obyekti sifatida olindi. Tadqiqot predmeti — mazkur tarjimalarda matn strukturasi, kommunikativ-pragmatik mazmun va lingvomadaniy birliklarning qayta yaratilish usullari hamda ular bilan bog‘liq transformatsion hodisalardir.

Tadqiqotning metodologik yangiligi shundaki, tarixiy matn tarjimalari alohida lingvistik birliklar darajasida emas, balki matnning uch o‘zaro bog‘liq

qatlami — lingvotextologik, lingvopragmatik va lingvomadaniy tizimlar asosida tahlil qilinadi:

— lingvotextologik aspektda matnning kompozitsion qurilishi, sintaktik-semantik yaxlitligi, paremik va poetik birliklarning tekst hosil qiluvchi xususiyatlari;

— lingvopragmatik aspektda tinglovchiga ta’sir ko‘rsatish strategiyalari, nasihat, murojaat, baholash va ogohlantirish kabi kommunikativ-pragmatik mexanizmlar;

— lingvomadaniy aspektda qadimgi turkiy tafakkur mahsuli bo‘lgan konseptlar, etnomadaniy birliklar va madaniy kodlarning tarjimada qayta ifodalanishi o‘rganiladi.

Tahlil materiali sifatida maqollar, matallar, she’riy parchalar, didaktik baytlar hamda konseptual leksemalar (qut, törü, bilig, el, alp kabi) tanlab olindi, chunki aynan shu qatlamlarda qadimgi turkiy dunyoqarashning tekstual modeli, pragmatik maqsadi va madaniy xotirasi eng zich shaklda mujassamlashgan. Tadqiqotda qiyosiy-tipologik metod, matn tahlili (lingvotextologik tahlil), pragmalingvistik tahlil (nutq aktlari nazariyasi asosida) va lingvokulturologik tahlil (konseptual tahlil) metodlari qo‘shma tarzda qo‘llanildi. Tadqiqot uch bosqichda amalga oshirildi: birinchi bosqichda matnning tekstual tashkil topishi va uning tarjimada qayta qurilish mexanizmlari; ikkinchi bosqichda matnning kommunikativ yo‘nalganligi va pragmatik strategiyalari; uchinchi bosqichda esa lingvomadaniy birliklarning tarjimada qayta yaratilish strategiyalari tahlil qilindi.

Natijalar va ularning tahlili

Lingvotextologik tahlil natijalari

Lingvotextologik yondashuv matnning kompozitsion qurilishi, ritmik-sintaktik xususiyatlari va qismlararo bog‘lanishlarini o‘rganishga qaratilgan. “Devonu lug‘at-it turk”dagi

Kiši alasï ičtin, yïlqï alasï taštïn maqoli ikki qismli parallel sintaktik model asosida qurilgan bo‘lib, unda **kiši – yïlqï** hamda **ičtin – taštïn** birliklari o‘zaro muvozanat hosil qiladi. Tahlil shuni ko‘rsatdiki, Q. Sodiqov [17], R. Dankoff [32] va Z. Auezova [33] tarjimalarining barchasida maqolning ikki qismli sintaktik qurilishi va qarama-qarshi juftliklar saqlangan, natijada mikromatnning tekstual yaxlitligi tarjimalarda ham davom ettirilgan.

Xuddi shunday holat “Qutadg‘u bilig”ning 3075–3076-baytlari;

Kiming bolsa dęvlėt uzadı elig,
Kamuğ tetrüsi ong sözi öğ bilig.
Ajun fėylėsufı nengi bolmasa,

Neçe tıldam erse kişedi tilig misolida ham kuzatiladi: bayt kompozitsion jihatdan boylik-mavqe va moddiy imkoniyatdan mahrum donishmand holatini ifodalovchi ikki mazmuniy qismdan tashkil topgan. Q. Karimov [15], R. Dankoff [29] va W. May [30] tarjimalarida ham baytning ikki qismli kompozitsion tuzilishi, mazmuniy bloklar o‘rtasidagi bog‘liqlik saqlangan. Bu natijalar lingvotextologik yondashuvning tarixiy matn tarjimasida tekstual arxitekturani nazorat qilish vositasi sifatidagi amaliy ahamiyatini tasdiqlaydi.

Lingvopragmatik tahlil natijalari

Lingvopragmatik tahlil doirasida “Devonu lug‘at-it turk”dagi ***Ïtqa uwut etsä, uldaŋ yemäs*** maqoli tahlil qilindi. Mazkur maqolda bevosita buyruq shakli mavjud bo‘lmasa-da, uning ichki kommunikativ vazifasi tinglovchiga ma’lum axloqiy me’yorni singdirishdan iborat — ya’ni baholash akti bilan bir qatorda tarbiyaviy ta’sir vazifasi ham bajariladi. Q. Sodiqov [17], R. Dankoff [32] va Z. Auezova [33] tarjimalarida ushbu baholovchi-tarbiyaviy yo‘nalish barcha holatlarda saqlab qolingan.

“Qutadg‘u bilig”ning 3401-baytida ***Kiçig düşmanım tip usanma özün, Nelük qorqayın tip küvenme sözün*** esa ogohlantirish nutq akti markaziy o‘rinni egallaydi: nutq egasi tinglovchini beparvolikdan qaytarib, ehtiyotkorlikka undaydi. Q. Karimov [15], R. Dankoff [29] va W. May [30] tarjimalari tahlili shuni ko‘rsatdiki, asliyatdagi ogohlantiruvchi-murojaat ohangi barcha tarjimalarda saqlangan, natijada baytning didaktik-ehtiyotkorlik me’yorini shakllantiruvchi asosiy kommunikativ vazifasi buzilmagan.

Olingan natijalar shuni ko‘rsatadiki, “Devonu lug‘at-it turk”dagi maqollarda baholash va tarbiyaviy ta’sir nutq aktlari ustunlik qilsa, “Qutadg‘u bilig” baytlarida ogohlantirish va nasihat xarakteridagi nutq aktlari yetakchi o‘rin tutadi. Bu farq ikki asarning janr-diskursiv tabiati bilan bog‘liq bo‘lib, tarjimon uchun pragmatik ta’sirni saqlash strategiyasini tanlashda muhim ko‘rsatkich vazifasini bajaradi.

Lingvomadaniy tahlil natijalari

Lingvomadaniy tahlil doirasida “Devonu lug‘at-it turk”dagi ***Qošnï-qonum ağïšqa***... parchasi hamda “Qutadg‘u bilig”ning 2980–2981-baytlari tahlil qilindi. Birinchi misolda qo‘ni-qo‘shnichilik va o‘zaro hadya almashish bilan bog‘liq madaniy kod, ikkinchisida esa ezgulik va minnatdorlik bilan bog‘liq axloqiy me’yor ifodalangan. Tahlil natijalari shuni ko‘rsatadiki, Q. Sodiqov [17], R. Dankoff [32] va Z. Auezova [33] tarjimalarida madaniy kodning asosiy mazmuniy yadrosi — o‘zaro hurmat va yaxshilikka yaxshilik bilan javob

qaytarish g‘oyasi — saqlangan, biroq ayrim etnomadaniy unsurlar kengroq auditoriyaga tushunarli bo‘lishi uchun qisman universallashtirilgan.

Xuddi shunday tendensiya “Qutadg‘u bilig”ning 2980–2981-baytlari

Kişi edgülükke sevüg can birür,
Bir edgü yanutı on edgü ḳılur.
Asıġ bolsa yalnguḳ özin ḳul ḳılur,
Angar ḳul bolur özke emgek urur tarjimalarida ham kuzatildi: Q. Karimov [15] tarjimasi milliy-madaniy kontekstga nisbatan yaqinroq bo‘lsa, R. Dankoff [29] va W. May [30] tarjimalarida ayrim etnomadaniy jihatlar universallashtirilgan. Bu holat madaniy mazmunning to‘liq almashtirilishi emas, balki uning qisman moslashtirilishi ekanini ko‘rsatadi, ya’ni qadriyatlar tizimi saqlangan holda ularning ifoda shakli tarjima tilining madaniy muhitiga moslashtiriladi.

Xulosa

Amalga oshirilgan tahlillar uchta asosiy xulosaga olib keladi. Birinchidan, lingvotextologik darajada tarjimonlar, qoida tariqasida, asliyatning kompozitsion-sintaktik strukturasini (parallelizm, ikki qismli qurilish) saqlashga intiladilar, bu esa tekstual yaxlitlikning tarjimalararo barqaror elementi ekanini ko‘rsatadi. Ikkinchidan, lingvopragmatik darajada nutq aktlarining kommunikativ yo‘nalganligi (baholash, ogohlantirish, nasihat) tarjimalarda izchil saqlanadi, biroq buning uchun tarjimon ko‘pincha grammatik ekvivalentdan ko‘ra funksional-pragmatik muqobilga murojaat qiladi. Uchinchidan, lingvomadaniy darajada eng yuqori o‘zgaruvchanlik kuzatiladi: madaniy kodning yadrosi saqlansa-da, uning periferik, milliy-spetsifik unsurlari tarjima tilining madaniy me’yorlariga moslashtirilib, qisman universallashtiriladi.

Shuningdek, tarjimalarni qiyoslash R. Dankoff [29; 32] tarjimalarida filologik izoh va madaniy sharh ustuvorligini, W. May [30] tarjimasida kommunikativ soddalashtirish va didaktik mazmunni yetkazish tendensiyasini, S. Ivanov [31] va Z. Auezova [33] tarjimalarida esa rus adabiy-falsafiy tili imkoniyatlari orqali interpretatsiya qilish strategiyasini namoyon etdi. Bu farqlar shuni tasdiqlaydiki, uchta yondashuv — lingvotextologik, lingvopragmatik va lingvomadaniy — bir-biridan ajratilgan holda emas, balki o‘zaro to‘ldiruvchi yagona tahlil tizimi sifatida qo‘llanilganda tarjima strategiyasining to‘liq manzarasini beradi.

Xulosa

Mazkur tadqiqot shuni ko‘rsatdiki, qadimgi turkiy yozma yodgorliklar tarjimasini faqat lingvistik hodisa sifatida talqin qilish uning murakkab tabiatini

to‘liq yoritish imkonini bermaydi. “Qutadg‘u bilig” va “Devonu lug‘at-it turk” kabi asarlarda matnning struktur tashkil topishi, kommunikativ vazifasi hamda madaniy mazmuni o‘zaro uzviy bog‘liq holda namoyon bo‘ladi. Shu sababli mazkur yodgorliklar tarjimalarini o‘rganishda lingvotextologik, lingvopragmatik va lingvomadaniy yondashuvlarning kompleks, integrativ qo‘llanilishi metodologik jihatdan zarur hisoblanadi.

Tadqiqot natijalari quyidagilarni asoslashga xizmat qildi: lingvotextologik yondashuv matnning kompozitsion qurilishi va tekstual yaxlitligini; lingvopragmatik yondashuv matnning kommunikativ maqsadi va tinglovchiga yo‘naltirilganligini; lingvomadaniy yondashuv esa tarixiy matnlarda mujassamlashgan madaniy axborot va etnomadaniy birliklarning tarjimada ifodalanish xususiyatlarini aniqlash imkonini beradi. Ushbu uch yondashuvning integrativ qo‘llanilishi asosida shakllantirilgan kompleks metodologik model matnning struktur, kommunikativ va madaniy qatlamlarini bir butun tizim sifatida tadqiq etish imkonini beradi va u turli davrlarga mansub boshqa tarixiy turkiy matnlar tarjimalarini ilmiy tahlil qilishda ham samarali qo‘llanilishi mumkin.

Tadqiqotning istiqboldagi yo‘nalishi sifatida ushbu integrativ modelni “Qutadg‘u bilig” va “Devonu lug‘at-it turk”ning boshqa tillardagi (masalan, qozoq, qirg‘iz) tarjimalari materialida sinovdan o‘tkazish, shuningdek, modelni boshqa qadimgi turkiy yozma yodgorliklar (Orxun-Enasoy bitiklari) tarjimalari tahliliga tatbiq etish maqsadga muvofiqdir.

Amaliy nuqtai nazardan, tadqiqot natijalari qadimgi turkiy adabiyot va tarjima tarixi bo‘yicha o‘quv kurslari, tarjima nazariyasi va amaliyoti fanlari, shuningdek, turkologik matnlarni nashrga tayyorlash bilan shug‘ullanuvchi mutaxassislar uchun metodologik qo‘llanma vazifasini o‘tashi mumkin. Xususan, taklif etilgan uch bosqichli tahlil sxemasi — tekstual interpretatsiya, tarixiy-madaniy rekonstruksiya va pragmatik moslashtirish — istalgan tarixiy matnni tarjima qilishdan oldingi tayyorgarlik ishlarida amaliy yo‘riqnoma sifatida qo‘llanilishi mumkin. Bundan tashqari, mazkur model tarjima sifatini baholash mezonlarini ishlab chiqishda ham foydali bo‘lib, tarjima matnini nafaqat leksik to‘g‘riligi, balki tekstual yaxlitligi, pragmatik ta’siri va lingvomadaniy adekvatligi nuqtai nazaridan baholash imkonini beradi.

Yakun sifatida ta’kidlash joizki, qadimgi turkiy yozma yodgorliklar tarjimasi tadqiqi tobora dolzarb ahamiyat kasb etib bormoqda, chunki bu jarayon nafaqat tarjimashunoslik, balki turkologiya, madaniyatshunoslik va tarixiy pragmatika fanlari kesishmasida yangi ilmiy natijalar olish imkonini beradi.

Lingvotextologik, lingvopragmatik va lingvomadaniy yondashuvlarning integrativ qo‘llanilishi esa bu boradagi tadqiqotlarning metodologik puxtaligini ta’minlovchi asosiy omil sifatida baholanishi lozim.

Adabiyotlar ro‘yxati

1. Jakobson R. On Linguistic Aspects of Translation // On Translation. – Cambridge: Harvard University Press, 1959. – P. 232–239.
2. Arat R.R. Kutadgu Bilig I. Metin. – Ankara: Türk Dil Kurumu, 1947; Kutadgu Bilig II. Çeviri. – Ankara: Türk Tarih Kurumu, 1959.
3. Ergin M. Orhun Abideleri. – İstanbul: Boğaziçi Yayınları, 1988. – S. 34.
4. Tekin T. Orhon Yazıtları. – Ankara: Türk Dil Kurumu, 2003. – S. 17.
5. Clauson G. An Etymological Dictionary of Pre-Thirteenth-Century Turkish. – Oxford: Clarendon Press, 1972.
6. Erdal M. A Grammar of Old Turkic. – Leiden–Boston: Brill, 2004. – P. 27.
7. Yusuf Xos Hojib. Qutadg‘u bilig / Nashrga tayyorlovchi Q. Karimov. – Toshkent: Fan, 1971.
8. Mahmud Koshg‘ariy. Devonu lug‘otit turk. I tom / Tarjimon S. Mutallibov. – Toshkent: Fan, 1960.
9. Sodiqov Q. Turkiy yozma yodgorliklar tili: adabiy tilning yuzaga kelishi va tiklanishi. – Toshkent: Fan, 2006.
10. Beaugrande R.-A., Dressler W. Introduction to Text Linguistics. – London: Longman, 1981.
11. Гальперин И.Р. Текст как объект лингвистического исследования. – М.: Наука, 1981.
12. Nida E.A. Toward a Science of Translating. – Leiden: E.J. Brill, 1964. – P. 159–167.
13. Austin J.L. How to Do Things with Words. – Oxford: Oxford University Press, 1962. – P. 98–108.
14. Searle J.R. Speech Acts: An Essay in the Philosophy of Language. – Cambridge: Cambridge University Press, 1969. – P. 23–31.
15. Leech G.N. Principles of Pragmatics. – London: Longman, 1983. – P. 13–30.
16. Арутюнова Н.Д. Язык и мир человека. – М.: Языки русской культуры, 1999. – С. 643–671.

17. Карасик В.И. Языковой круг: личность, концепты, дискурс. – Волгоград: Перемена, 2002. – С. 186–203.

18. Humboldt W. von. Über die Verschiedenheit des menschlichen Sprachbaues. – Berlin: Königliche Akademie der Wissenschaften, 1836. – S. 51–57.

19. Newmark P. A Textbook of Translation. – New York: Prentice Hall, 1988. – P. 45–48.

20. Бархударов Л.С. Язык и перевод. – М.: Международные отношения, 1975. – С. 9–15.

21. Федоров А.В. Основы общей теории перевода. – СПб.: Филология Три, 2002. – С. 35–41.

22. Комиссаров В.Н. Теория перевода. – М.: Высшая школа, 1990. – С. 48–53.

23. Gadamer H.-G. Truth and Method. – London: Continuum, 2004. – P. 305–390.

24. Steiner G. After Babel: Aspects of Language and Translation. – Oxford: Oxford University Press, 1975. – P. 28.

25. Venuti L. The Translator’s Invisibility. – London: Routledge, 1995. – P. 19–24.

26. Телия В.Н. Русская фразеология. Семантический, прагматический и лингвокультурологический аспекты. – М.: Языки русской культуры, 1996. – С. 214–236.

27. Маслова В.А. Лингвокультурология. – М.: Академия, 2001. – С. 27–35.

28. Маҳмудов Н. Тилнинг мукаммал тадқиқи йўлларини излаб... – Тошкент: Mumtoz so‘z, 2012; Худойберганова Д. Матннинг антропоцентрик тадқиқи. – Тошкент: Fan, 2013.

29. Yusuf Khass Hajib. Wisdom of Royal Glory (Kutadgu Bilig) / Translated by R. Dankoff in collaboration with W. May. – Chicago: The University of Chicago Press, 1983.

30. Yusuf Balasaguni. Beneficent Knowledge / Translated by Walter May. – Moscow; Bishkek: Traditional Cultures and Environments, 1998.

31. Юсуф Баласагуни. Благодатное знание / Пер. С.Н. Иванова. – Москва: Наука, 1983.

32. Dankoff R., Kelly J. Maḥmūd al-Kāšγarī. Compendium of the Turkic Dialects (Dīwān Luγāt at-Turk). Part I. – Harvard University Printing Office, 1982.

33. Ауэзова З.-А. Тюркский мир «Дивану лугат ат-турк» Махмуда Кашгари. – Алматы: Дайк-Пресс, 2005.